

HARBIY XIZMATNI O'TASH TIZIMIDA ISLOHOTLAR VA ULARNING SAMARADORLIGI

Alijonov Baxtiyor Xoshimovich

Farg'ona Davlat Universiteti Harbiy Talim Fakultiti O'qituvchisi

Sobirjonov Og'abek

Farg'ona Davlat Universiteti Harbiy Talim Fakultiti Talabasi

Sobirjonov Xasanboy

Farg'ona Davlat Universiteti Harbiy Talim Fakultiti Talabasi

Obidov Ozodbek

Farg'ona Davlat Universiteti Harbiy Talim Fakultiti Talabasi

Annotatsiya: O'zbekiston Respublikasida harbiy xizmatni o'tash tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, ularning mazmun-mohiyati va samaradorlik jihatlari tahlil qilinadi. So'nggi yillarda harbiy sohada olib borilayotgan yangilanishlar — mudofaa salohiyatini mustahkamlash, harbiy xizmatchilarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish hamda armiyada zamonaviy boshqaruv tizimini joriy etishga yo'naltirilgani yoritiladi. Shuningdek, harbiy xizmatni o'tash tizimidagi islohotlarning yoshlar ongida vatanparvarlik, sadoqat va mas'uliyat tuyg'usini shakllantirishdagi o'rni ham tahlil etilgan.

Kalit so'zi: harbiy xizmat, islohotlar, samaradorlik, milliy xavfsizlik, mudofaa tizimi, vatanparvarlik, armiyada boshqaruv, harbiy xizmatchi.

Аннотация: В статье анализируются реформы, проводимые в системе военной службы Республики Узбекистан, их содержание и эффективность. Реформы, проводимые в военной сфере в последние годы, направлены на укрепление обороноспособности, усиление социальной защиты военнослужащих и внедрение современной системы военного управления. Также анализируется роль реформ военной службы в воспитании молодежи в духе патриотизма, преданности и ответственности.

Ключевые слова: военная служба, реформы, эффективность, национальная безопасность, система обороны, патриотизм, управление в армии, военнослужащий.

Annotation: This article analyzes the reforms implemented in the military service system of the Republic of Uzbekistan, their content and effectiveness. The reforms implemented in the military sphere in recent years are aimed at strengthening the defense capabilities, enhancing the social protection of military personnel, and introducing a modern military command system. The role of military service reforms in the formation of a spirit of patriotism, loyalty, and responsibility among young people is also analyzed.

Key words: military service, reforms, efficiency, national security, defense system, patriotism, management in the army, military serviceman.

KIRISH: ¹O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, milliy xavfsizlikni ta'minlash va Qurolli Kuchlarni mustahkamlash masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Harbiy xizmat tizimi davlat mudofaasining muhim bo'g'ini bo'lib, uning samarali faoliyat yuritishi mamlakat suverenitetini himoya qilishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Shu bois, so'nggi yillarda harbiy xizmatni tashkil etish, boshqaruvni takomillashtirish va shaxsiy tarkibning kasbiy tayyorgarligini oshirish borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi. Mazkur islohotlar zamonaviy xavfsizlik tahdidlari, texnologik rivojlanish va global harbiy tajribalardan kelib chiqib, milliy armiyamizni zamon talablariga mos shaklda rivojlantirishga qaratilgan.

Yangi tahrirdagi nizomda mamlakatimizda harbiy xizmat nufuzini yuksaltirish va Qurolli Kuchlarimiz jangovar shayligini yanada oshirish maqsadida qo'shin turlarini yosh, shijoatli, vatanparvar, sadoqatli va intellektual salohiyatli yoshlar bilan butlash, kontrakt bo'yicha harbiy xizmatga qabul qilish shartlari, harbiy xizmatni o'tash jarayoni, harbiy xizmatchilarning ijtimoiy himoyasi masalalari va harbiy xizmatdan rezervga bo'shatish tartibi bilan bog'liq ko'plab masalalar

¹ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. — Toshkent: O'zbekiston, 2023.

huquqiy jihatdan mustahkamlab qo'yilgan. Rivojlangan xorijiy davlatlar amaliyotini o'rganish, yillar davomida harbiy xizmatni o'tash tartibi bilan bog'liq yo'nalishda vujudga kelgan muammolar, to'plangan hayotiy tajriba va xizmat amaliyotini inobatga olgan holda yangilangan ushbu nizom oldingisidan 80% ga o'zgartirilgan. Jumladan, eski tahrirdagi nizom 12 ta bob, 38 ta bo'lim va 382 ta baddan iborat bo'lib, uning ilovasiga 3 turdagi kontrakt blankalar ilova qilingan edi.² Yangi tahrirdagi nizomda bir-birini takrorlovchi 18 ta band birlashtirilib, 38 ta bo'lim har bir bob tarkibiga 37 ta alohida-alohida paragraf qilib kiritildi, natijada nizom 13 ta bob, 360 ta baddan iborat ko'rinishga keltirilib, ilovalar qismi 4 turdagi kontrakt blankalariga ko'paytirildi. Nizom loyihasining «Umumiy qoidalar» bobida harbiy xizmatni o'tash bilan bog'liq bo'lgan 14 ta asosiy tushunchani qamrab olgan atamalar apparati shakllantirildi. Yangi tahrirdagi nizom bilan Qurolli Kuchlarimizni kontrakt bo'yicha harbiy xizmatchilar bilan butlashning eksterritorial prinsipi bilan birga yana yangi — territorial prinsipi joriy etildi. Mazkur normaning yangi nizom bilan tasdiqlanishi harbiy xizmatchilarning xizmat joyini o'zgartirish (rotatsiya) bilan bog'liq bo'lgan barcha masalalarni tartibga soladi. Qaror bilan tasdiqlangan nizomning 15-bandida ma'lumot darajasidan qat'i nazar, muddatli harbiy xizmatni o'tayotgan barcha fuqarolar uchun muddatli harbiy xizmatning muddati kalendar hisobda 12 (o'n ikki) oy etib (eski tahrirda oliy ma'lumotli fuqarolar uchun 9 (to'qqiz) oy etib belgilangan) belgilandi. Kalendar hisobida kamida 10 (o'n) yil xizmat qilgan ofitserlar tarkibiga mansub kontrakt bo'yicha harbiy xizmatchilarga haqiqiy harbiy xizmatdan rezervga bo'shatilayotganda haqiqiy harbiy xizmat muddatiga oliy ta'lim muassasasining kunduzgi bo'limidagi 1 (bir) oy o'qish muddati 1 (bir) oy xizmat muddati hisobida hamda oliy ta'lim muassasasini tamomlaganidan so'ng ixtisosligiga mos keladigan lavozimlardagi 1 (bir) oylik ish staji 1 (bir) oylik xizmat hisobida qo'shib hisoblash (eski tahrirda faqat rezervdan (zaxiradan) ixtiyoriy ravishda kontrakt bo'yicha harbiy xizmatdan) Bundan tashqari, O'zbekiston

² O'zbekiston Respublikasi "Mudofaa to'g'risida"gi Qonuni. — Toshkent: Adolat, 2022.

prezidentining qaroriga muvofiq, O'zbekiston prezidenti yoki O'zbekiston prezidenti huzuridagi Xavfsizlik kengashi devoni bilan kelishilgan holda davlat organlari va tashkilotlari xodimlarini ³O'zbekiston Qurolli Kuchlariga harbiy xizmatga olishda ularning oliy ta'lim muassasalaridagi o'qish muddatlari va oldingi ish joylarida mehnat staji pensiyani hisoblashda haqiqiy harbiy xizmat muddatiga 1 (bir) oylik o'qish (ish) 1 (bir) oylik xizmat hisobida qo'shib hisoblanish to'g'risidagi norma belgilab qo'yildi. matga chaqirilgan ofitserlarga nisbatan qo'llanilgan) tartibi joriy etildi. Oliy harbiy ta'lim muassasalarining kursantlari lavozimlariga qabul qilinishdagi yosh senzlari 17 (o'n yetti) yoshdan 23 (yigirma uch) yoshgacha (eski tahrirda 21 yoshgacha bo'lgan) ko'tarildi. Shuningdek, 26 (yigirma olti) yoshgacha bo'lgan (eski tahrirda ushbu norma yoritilmagan) va oliy harbiy ta'lim muassasalarida aloqa muhandis texnigi va harbiy-tibbiyot ixtisosligi bo'yicha o'qish istagini bildirgan O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarining talabalari oliy harbiy ta'lim muassasalarining kursantlari lavozimlariga o'qishga qabul qilinishlari to'g'risidagi norma kiritildi. Kontrakt bo'yicha harbiy xizmatchilarning harbiy xizmatda bo'lish yoshining chegaralari «Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida»gi Qonunining 26-moddasi talablariga moslashtirildi, ya'ni:

- kontrakt bo'yicha harbiy xizmatni o'tayotgan oddiy askarlar (matrosalar), serjantlar (starshinalar) uchun — 45 yosh;
- kichik ofitserlar uchun — 45 yosh;
- katta ofitserlar uchun — 50 yosh, polkovniklar (1-darajadagi kapitanlar) uchun — 55 yosh;
- «general-mayor», «general-leytenant» va «general-polkovnik» harbiy unvonidagi ofitserlar uchun — 60 yosh.

Yangi tahrirdagi nizomning 6-bobida teng yoki past lavozimlarga tayinlash bilan bog'liq bandlariga o'zgartirishlar kiritilishi bilan harbiy xizmatchilarni

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 9-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmoni.

<https://scientific-jl.com/>

lavozimlarga tayinlash borasida yuzaga kelayotgan muammoli vaziyatlarning bartaraf etilishiga erishildi. Bundan tashqari, harbiy xizmatchilar tomonidan vaqtinchalik lavozimni bajarish muddati 3 (uch) oydan 6 (olti) oyga qadar uzaytirildi, umumiy tartib asosida lavozimni topshirish muddati 1 (bir) oydan 20 (yigirma) kunga qisqartirildi, harbiy xizmatchilarni harbiy qism komandiri ixtiyoriga chiqarish tartibi soddalashtirilib, uning muddati 1 (bir) oydan 2 (ikki) oyga qadar uzaytirildi. ⁴Kontrakt bo'yicha harbiy xizmatchining boshqa aka-ukalari bo'lmagan taqdirda doimiy ravishda alohida yashovchi ota-onasiga doimiy qarab turish uchun oilaviy sharoitiga ko'ra, yangi xizmat joyiga o'tkazish masalasida bundan buyon uning yaqin qarindoshlari hisoblangan opa yoki singillarining borligi, ularning ota-onasi qatori bir viloyat, tuman yoki shaharda istiqomat qilish holatlari inobatga olinmasligi to'g'risidagi tartib joriy etildi. Nizomning yangi tahrir loyihasida kontrakt bo'yicha harbiy xizmatchilarni bir vazirlik tizimidan boshqa biriga o'tkazish tartibi soddalashtirilib, nomenklatura lavozimlarga kirmaydigan harbiy xizmatchilarni boshqa vazirliklarga o'tkazilishi vazirlik rahbarlarining o'zaro kelishuvi (eski tahrirda O'zbekiston prezidenti huzuridagi Xavfsizlik kengashi ruxsati bilan) asosida amalga oshirilish tartibi belgilab qo'yildi. Xususan, oddiy askar, serjant va ofitserlar tarkibiga mansub kontrakt bo'yicha harbiy xizmatchilarga yil yakunlariga ko'ra yanvar oyida qo'shinlar jangovar shayligini saqlab turgani, xizmat majburiyatlarini vijdonan bajargani uchun bir marta beriladigan pul mukofoti, shuningdek, yilda bir marta bir marotabalik pul ta'minoti okladiga teng miqdordagi moddiy yordam puli to'lab berish normasi huquqiy jihatdan mustahkamlab qo'yildi (eski tahrirda bu imtiyozlar ko'rsatilmagan).

MUHOKAMA: O'zbekiston harbiy xizmat tizimidagi islohotlarning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat: Harbiy xizmatni o'tash shakllarining soddalashtirilishi. Qisqa muddatli harbiy xizmat, safarbarlik chaqiruvi rezervi

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 14-yanvardagi "Vatan himoyachilari kunini nishonlash va Qurolli Kuchlar tizimini yanada rivojlantirish to'g'risida"gi nutqi.

tizimi va shartnoma asosidagi xizmat turlari joriy etildi. Bu esa yoshlarning armiyada xizmat qilishga bo'lgan qiziqishini oshirdi. Harbiy xizmatchilarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish. Uy-joy bilan ta'minlash, oylik maoshlarni oshirish, pensiya va imtiyozlar tizimini yaxshilash natijasida xizmat nufuzi ortdi. Harbiy ta'lim tizimining takomillashuvi. Harbiy akademiyalar va oliy o'quv yurtlarida zamonaviy ta'lim texnologiyalari joriy etilib, ofitserlar tayyorlash tizimi xalqaro standartlarga yaqinlashtirildi.

XULOSA: Harbiy xizmat tizimidagi islohotlar O'zbekiston Respublikasining mudofaa salohiyatini mustahkamlash, yoshlarning vatanparvarlik ruhini yuksaltirish va harbiy sohani professional asosda rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu islohotlarning natijasida Qurolli Kuchlar zamonaviy texnologiyalarni o'zlashtirgan, milliy manfaatlarni himoya qila oladigan kuchga aylandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. — Toshkent: O'zbekiston, 2023.
2. O'zbekiston Respublikasi "Mudofaa to'g'risida"gi Qonuni. — Toshkent: Adolat, 2022.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 9-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmoni.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 14-yanvardagi "Vatan himoyachilari kunini nishonlash va Qurolli Kuchlar tizimini yanada rivojlantirish to'g'risida"gi nutqi.
5. Karimov Sh. Yurt tinchligi — xalq farovonligi garovi. — Toshkent: O'zbekiston, 2021.
6. Jo'rayev A., Xudoyberdiyev N. O'zbekiston Qurolli Kuchlari: shakllanishi va rivojlanish bosqichlari. — Toshkent: Akademiya, 2020.
7. Ergashev M. Harbiy xizmat tizimini takomillashtirishning zamonaviy yo'nalishlari. // "Harbiy bilimlar" jurnali, №2, 2022. — B. 45–53.
8. Matyazov D. Mudofaa siyosati va milliy xavfsizlik konsepsiyasi. — Toshkent: Ma'naviyat, 2021.